

## Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

2020- yil yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyati bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2125,6 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **9,9 %** ga o'sishi ta'minlandi.


## Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlar soni, mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar hamda o'rtacha oylik ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarishi, foizda

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlari, ming so'm

(2020- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)





## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


### Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlar soni, mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar hamda o'rtacha oylik ish haqining o'zgarishi

(2020- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

	<i>Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik</i>	<i>Xodimlar soni, kishi</i>	<i>Mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar, mln. so'm</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm</i>
<b>Viloyat bo'yicha - jami</b>	<b>2 299</b>	<b>96 311</b>	<b>2 402 248,8</b>	<b>2 125,6</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	32	11 401	319 894,9	2 338,2
Qurilish	4	661	10 500,3	1 323,8
Savdo	14	1 257	41 103,9	2 725,0
Tashish va saqlash	10	1061	20 151,6	1 582,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	52	896,3	1 436,3
Axborot va aloqa	17	476	16 031,8	2 806,7
Bank, sug'urta va vositachilik	28	1 977	135 653,5	5 718,0
Ta'lim	930	45 087	1 043 527,7	1 928,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	72	18 914	406 976,3	1 793,1
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	64	872	26 576,4	2 539,8
Boshqa faoliyat turlari	1125	14 553	380 936,3	2 181,3

**Ish haqi.** 2020- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

**Sanoat** sohasida **32** ta korxonada **11 401** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **11,8 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **319894,9** mln so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **13,3 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2338,2** ming so'mni tashkil etib, 2019 - yilning mos davriga nisbatan **7,0 %** ga o'sdi.






## Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)



### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Sanoat sohasi bo'yicha bir qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyatning o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Zafarobod tumani - **132,2 %**, Paxtakor tumani - **125,1 %** va Jizzax shahri - **104,3 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Do'stlik - **95,6 %**, Forish - **84,8 %**, Zarbdor - **76,0 %** hamda Sharof Rashidov - **73,8 %** tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






## Qurilish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

**Qurilish** sohasida **4** ta korxonada **661** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **0,7 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **10500,3** mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi **0,4 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1323,8** ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **67,5 %** ga pasaydi.

### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:



Qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Mirzacho'l - 193,4 % va Jizzax shahrida - 175,6 % viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Zafarobod tumanida – **66,7 %** kuzatildi.






**Savdo faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2020- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



**Savdo** sohasida **14** ta korxonada **1 257** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **1,3 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **41 103,9** mln. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **1,7 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 725,0** ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **14,4 %** ga o'sdi.

**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:**




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Do'stlik tumani – **121,9 %** va Jizzax shahri **-100,9 %** ga to'g'ri keldi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Baxmal tumani - **92,6 %** hamda Paxtakor tumani – **39,0 %** hissasiga to'g'ri keldi.

**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:**






**Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2020- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)



**Ta'lim** sohasida **930** ta muassasada **45087** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **46,8 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **1043527,7** mln. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **43,4 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1928,7** ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **3,2 %** ga o'sdi.

**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:**




Ta'lim sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Jizzax shahri – **118,0 %**, Baxmal va Zomin tumanlari – **108,8 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Arnasoy - **99,4 %**, Zarbdor - **98,8 %**, Paxtakor - **95,9 %** hamda Yangiobod – **95,8 %** tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:**








### Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 72 ta muassasada 18914 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 19,6 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar 406976,3 mln. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi 16,9 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1793,1 ming so'mni tashkil etib, 2019 - yilning mos davriga nisbatan 20,5 % ga o'sdi.

#### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Jizzax shahri - 122,6 %, Zafarobod - 109,8 %, Mirzacho'l - 109,1 %, G'allaorol - 105,1 % va Arnasoy - 101,4 % tumanlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarda viloyatning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Hususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Do'stlik – 99,7 %, Sharof Rashidov -93,0 %, Paxtakor - 91,3 %, hamda Zomin - 88,5 %, tumanlarida kuzatildi.

#### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:





## Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha **28** ta muassasada **1977** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **2,1 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **135653,5** mln. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **5,6 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **5718,0** ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **29,2 %** ga o'sdi.




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida - **102,6 %** ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi ba'zi tumanlarida viloyatning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Yangiobod tumani - **74,9 %**, Zomin tumani -**61,8 %**, Paxtakor tumani -**48,2 %** hissasiga to'g'ri keldi.

### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %.**

*(2020- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*


Jizzax viloyati bo'yicha 2020 - yil yanvar -dekabr oylarida 2019 - yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati yashash va ovqatlanish sohasida **47,4 %**, axborot va aloqa sohasida **38,8 %**, moliya va sug'urta faoliyatida **29,2 %**, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida **20,5 %** va savdo sohasida **14,4 %** kuzatildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020 - yil yanvar-dekabr oylarida eng yuqori bo'lgan ish haqqi, ming so'mda**



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini shahar va tumanlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida **2726,8** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **128,3 %**) ni tashkil etgan bo'lsa, Paxtakor tumanida **2079,5** ming so'mni (**97,8 %**), Do'stlik tumanida **1967,4** ming so'mni (**92,6 %**) va Zomin tumanida **1943,0** ming so'mni (**91,4 %**) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

**Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqi miqdorining viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan o'sishi (foizda)**






## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Shahar va tumanlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlari

(2020- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	O'sish sur'ati, %.
<b>Jizzax viloyatida</b>	<b>1 934,2</b>	<b>2 125,6</b>	<b>109,9</b>
Jizzax shahri	2 472,7	2 726,8	110,3
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1 892,7	1 833,0	96,8
Baxmal	1 856,6	1 940,5	104,5
G'allaorol	1 600,3	1 693,9	105,9
Sharof Rashidov	1 745,7	1 754,8	100,5
Do'stlik	1 794,0	1 967,4	109,7
Zomin	1 780,9	1 943,0	109,1
Zarbdor	1 461,3	1 816,9	124,3
Zafarobod	1 518,0	1 674,0	110,3
Mirzacho'l	1 698,6	1 808,8	106,5
Paxtakor	1 550,5	2 079,5	134,1
Forish	1 529,0	1 653,3	108,1
Yangiobod	1 555,1	1 755,5	112,9

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2020- yil mart oyida 679,3 ming so'mni tashkil etgan, Vazirlar Mahkamasining 2019 -yil 18- yanvardagi 47- sonli qaroriga binoan, mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3- razryadlari koeffitsiyentlari oshirildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat statistikasi  
bo'limi.**

Тел:72-221-51-19